



Ministry of health
of the Republic
of Uzbekistan



Tashkent Medical
Academy



Korea
University

***O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI,
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI,
KORYO UNIVERSITETI***

***“ATROF MUHIT MUHOFAZASINING DOLZARB MUAMMOLARI VA INSON
SALOMATLIGI”
xalqaro ishtirok bilan Respublika 9- ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami***

*Collection of scientific papers of the 9th republican scientific-practical conference with
international participation*

***“IMPORTANT PROBLEMS OF THE ENVIRONMENTAL PROTECTION AND HUMAN
HEALTH“***

*Сборник научных трудов 9-ой республиканской научно-практической конференции с
международным участием*

***«АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И ЗДОРОВЬЕ
НАСЕЛЕНИЯ»***



Toshkent-2022, 16-noyabr

38. <i>Шеркўзиева Г.Ф., Саломова Ф.И., Садуллаева Х.А. СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА СУЗИШНИНГ РОЛИ</i>	115
--	-----

TEZISLAR

1. <i>Abdovakhitova I.N., Toxtayev G.Sh., Elboboyev B.A., Kurbanov B.B. THE INCIDENCE OF OCCUPATIONAL DERMATOSES.</i>	118
2. <i>Abduvaliyeva F.T., Azizova F.L. MAHALLIY SUV TA’MINOTI (BURG’ULI QUDUQLAR) SUVINING MINERAL TARKIBINI AHOLI SALOMATLIGIGA TA’SIRI.</i>	119
3. <i>Abdukadirova B.Y. SHIFOKORLARNING MEHNAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLASHTIRISHNING FUNKSIONAL IMKONIYATLARI.</i>	120
4. <i>Абдукадилова Л.К. БОЛАЛАР БОҒЧАСИ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРИНИНГ ТЎҒРИ ОВҚАТЛАНИШ ХОЛАТИНИ ЎРГАНИШ.</i>	122
5. <i>Abdullayeva O.Y., Ganiyeva K.Sh. BENEFICIAL PROPERTIES OF ZAM ZAM WATER</i>	126
6. <i>Абдуллаева Ў.Й., Фаниева Х.Ш. SMOG - ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТНИНГ ЖИДДИЙ ЭКОЛОГИК МУАММОСИ.</i>	123
7. <i>Abdulxakimov A.R., Fattaxov N.X. ОСОБЕННОСТИ СТРОЕНИЯ УШНОЙ РАКОВИНЫ</i>	127
8. <i>Abdulxakimov A.R., Fattaxov N.X. DEPENDENCE OF THE MORPHOLOGY OF THE OUTER EAR ON VARIOUS CAUSES</i>	128
9. <i>Abdulxakimov A.R., Fattaxov N.X. FEATURES OF THE STRUCTURE OF THE AURICLE</i>	128
10. <i>Abdulxakimov A.R., Fattaxov N.X. THE INFLUENCE OF DEVELOPMENTAL ABNORMALITIES ON THE MORPHOLOGY OF THE OUTER EAR.</i>	129
11. <i>Abdulxakimov A.R., Fattaxov N.X. VARIOUS RELATIONSHIPS IN THE FORMATION OF THE OUTER EAR</i>	129
12. <i>Abdulxakimov A.R., Fattaxov N.X. СВОЕОБРАЗНЫЕ КАЧЕСТВА УХА У ЧЕЛОВЕКА.</i>	130
13. <i>Ablaqulov I.D., Tuxtarov B.E., Valiyeva M.U. SIL KASALLIGINING OLDINI OLISHDA PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLARNING AHAMIYATI</i>	131
14. <i>Alisherov T.A., Nurmatov B.Q., Shodmonov B.B. BOSMAXONA ICHKI MUHIT NOMUVOFIQ MIKROIQLIM OMILLARINI O’RGANISH VA GIGIYENIK VAHOLASH</i>	132
15. <i>Атанова А.Д., Мусина А.А., Сулейменова Р.К., Абildaева А.К., Раинбек М.Р. ОЦЕНКА КАЧЕСТВА СБОРА И ХРАНЕНИЕ МЕДИЦИНСКИХ ОТХОДОВ В СТОМАТОЛОГИЧЕСКИХ ПОЛИКЛИНИКАХ Г.АСТАНА</i>	134
16. <i>Ахмедалиева Н.О., Тoшматова Г.О., Ниязова О.А. ИЗУЧЕНИЕ И ОЦЕНКА ПИТАНИЯ ШКОЛЬНИКОВ ОБУЧАЮЩИХСЯ В ГОРОДСКИХ И СЕЛЬСКИХ УСЛОВИЯХ</i>	135
17. <i>Axmedova S.T., Usmanov Sh.N., Safarov Sh.B. BOLALARI ORASIDA VIRUSLI GEPATIT A KASALLIGINING TARQALGANLIGI VA UNING PROFILAKTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	136
18. <i>Ahmedova D.B., Xashirbayeva D.M. BRONXOPULMONAR TIZIM PATOLOGIYASI BO’LGAN PROFESSIONAL BEMORLARDA «BRONXONORM» VA «HILOBRONX» BIOLOGIK FAOL QO’SHIMCHALARINING SAMARASI</i>	137
19. <i>Ahmedova D.B., Xashirbayeva D.M. KASBIY XARAKTERGA EGA O’PKA PATOLOGIYASINI O’RGANISHNING KLINIK VA ASBOB-USKUNAVIY USULLARI</i>	139
20. <i>Berdiyev A.X., Shaymardonov B.X., Jalilov J.J. ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ АСПЕКТЫ ПРОФИЛАКТИКИ ОСЛОЖНЕНИЙ, СВЯЗАННОЙ С ОКАЗАНИЕМ МЕДИЦИНСКОЙ ПОМОЩИ</i>	141



Me’da –ichak tizim kasalliklarining yuqori ko’rsatkichlari asosan aholi o’rtasida uchraydigan gastrit, duodenit, me’da va o’n ikki barmoqli ichak yara kasalliklari, qabziyat, yuqumsiz enterit va kolitlar hisobiga yuzaga keladi. Bizlar tomonimizdan olib borilgan izlanishlar natijasida aniqlandiki, aholi o’rtasida uchraydigan kasalliklarning sezilarli qismi, aynan ichimlik suv tarkibidagi mineral moddalar miqdoridagi nuqsonlar, aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta’minlanish holatidagi uzilishlar sabab bo’ladi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlarda aniqlandiki, Farg’ona viloyati, jumladan Farg’ona shahar aholisini markazlashtirilgan holda ichimlik suvi bilan ta’minlaydigan manbalar suvining minerallashtirilgan tarkibi me’yoriy hujjatlar normalaridan ancha yuqori. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko’rinadiki, aholi o’rtasida kuzatilgan kasalliklar ichimlik suv tarkibidagi uning mineral moddalari, organik birikmalari, suvning qattiqligiga bog’liq emas, ammo bu mazkur hududda istiqomat qiluvchilar o’rtasida suv bilan bog’liq bo’lgan yuqumsiz kasalliklarni suv tarkibiga bog’liq emasligini bildirmaydi. Bu ayniqsa bo’qoq, metgemoglobinemiya, kariyes, flyuoroz, buyrak va o’t – tosh kasalliklariga taalluqlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 4 maydagi “2017-2021 yillarda yer osti suvlari zahiralardan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori
2. Содержание кальция и магния в воде (жесткость). URL: <http://biofile.ru/4302.html>.
3. Кишкун А. А. Руководство по лабораторным методам диагностики. М.: GEOTAR-Media, 2007. 779 s.
4. Петров В. Н. Явное и тайное «зеленого змия». Пушкино: ONTI PNTS RAN, 2000. 55 s

SHIFOKORLARNING MEHNAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLASHTIRISHNING FUNKSIONAL IMKONIYATLARI.

Abdukadirova B.Y.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Kirish. Axborot texnologiyalari asri deb yuritilayotgan XXI asrda, zamonaviy axborot texnologiyalarining jamiyat hayotining barcha jabhalarida, xususan tibbiyot sohasida tutgan o’rni beqiyos sanaladi. Tibbiyotning yutuqlari ko’p jihatdan axborot texnologiyalari muvaffaqiyatlariga asoslangan. Ko’p hollarda bemorlar shifo izlab o’z kasalligi bo’yicha tegishli mutaxassisni topib, tibbiy ko’rikdan o’tgunga qadar ham ko’p vaqt sarflab, kasallik muolajasi davri surilib ketishiga sabab bo’ladi. Ushbu muammoning dolzarbligi aholining axborot texnologiyalaridan optimal maqsadlarda foydalana olishda sustligidan darakdir. Shuningdek, hozirgi kunda rivojlanib kelayotgan Biotibbiyot muhandisligi, Tibbiyotda raqamli texnologiyalar kabi sohalar ham Tibbiyot hamda Axborot texnologiyalari fani bilan chambarchas bog’liq.

Mavzuning dolzarbligi. Shifokorlarning mehnat samaradorligini oshirishda va bemorlarning mushkulini onson, og’irini yengil etish, vaqtini, mablag’ini tejash. Axborot texnologiyalarining funksional imkoniyatlari ko’pligi ularni qo’llash uchun shifokor va bemorlarga cheksiz yo’nalishlarni beradi. Mazkur muammoalar yechimlarini umumlantirib, raqamlashtirilgan texnologiyadan foydalangan holda bemorlar ishini umumiy holda optimallashtirishda, vaqtini tejash, kasallik xavflarini tezkor bartaraf etish, davolanishida ajralmas yordamchiga aylanishi ko’zda tutiladi.

Tadqiqot natijalari. So’nggi bir yil mobaynida tibbiy xizmat sifatini oshirishga qaratilgan 20 dan ortiq Prezident farmoni va qarorlari qabul qilindi. Joriy yilda sohaga byudjetdan 21 trillion so’m, ya’ni 2017 yilga nisbatan 3 baravar ko’p mablag’ ajratildi.

Biroq, ko’rilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, tumanlar, chekka qishloqlarda yashovchi aholi tibbiy xizmatdagi jiddiy va tub o’zgarishlarni o’z hayotida sezgani yo’q. Afsuslanarlisi, sohadagi talon-tarojliklar, vazifasiga loqaydlik bilan qarash holatlari tizimda qator muammolarni keltirib chiqarib, o’z navbatida bu omillar aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda.

Quyi tibbiyot tizimi bugungi kun talab darajasiga javob bermaydi. Malakali tibbiy yordamga muhtoj bo‘lganlar esa ortiqcha vaqt va mablag‘ sarflab, ixtisoslashgan markazlarga murojaat qilishga majbur bo‘lmoqda.

Agar yurtimizdagi 3 mingdan ziyod tibbiyot muassasasi raqamlashtirilib, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari bilan viloyat, shahar va tuman shifoxonalari bir tizimga ulansa, ana shunda aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish imkoniyati yaratiladi va ortiqcha ovoragarchilikka barham beriladi.

Prezidentimizning kuni kecha qabul qilingan «Sog‘liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori sohada o‘tkazilayotgan islohotlar jarayonida butunlay yangi davrini boshlab beradi.

Hujjat bilan sog‘liqni saqlash rahbariyatining asosiy faoliyat yo‘nalishlari belgilandi. Ilgarigidan mutlaqo farq qiladigan yangi boshqaruv tizimining tamal toshi qo‘yildi.

Qarorda belgilangan vazifalardan eng muhimi tibbiyotning birlamchi bo‘g‘inini yuqori darajada samarali tashkil etish hamda aholiga tibbiyotni yaqinlashtirish hisoblanadi. Aholi bundan buyog‘i shahar, viloyat markazi yoki respublikaga sarson bo‘lib yurmasdan o‘z yashash hududida sifatli ambulatoriya va statsionar tibbiy xizmatlardan foidalana olishi belgilanmoqda.

Yangi joriy etilayotgan boshqaruv tizimiga asosan sog‘liqni saqlash vaziriga tizim va idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, ularning ishini samarali tashkil etish, fan-ta’limni rivojlantirish, vazirning birinchi o‘rinbosariga oilaviy shifokor punktlari, oilaviy poliklinika, tuman, shahar ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika va shifoxonalari tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish sifati, ularni jihozlash hamda tibbiyot xodimlarining bilim va malakasini oshirish, vazirning raqamlashtirishga mas’ul o‘rinbosariga tibbiyot sohasini raqamlashtirish, moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklikni joriy qilish va rivojlantirish, yana bir vazir o‘rinbosariga respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot va ko‘p tarmoqli viloyat shifoxonalari isloh qilish, ularni birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalari bilan bog‘lash yuklatiladi.

Shu paytga qadar birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalarida dori vositalari va tibbiyot buyumlari uchun birlashtirilgan aholi jon boshiga ajratilgan mablag‘ miqdori 5 ming so‘m edi. 2021 yil 15-iyundan boshlab bu miqdor 3 barobarga oshirilib, 15 ming so‘mni tashkil etadi. Shu maqsad uchun 2021 yil investitsiya loyihalarini maqbullashtirish hisobidan 165 milliard so‘m miqdorida mablag‘ ajratildi [1].

Joylarda, ayniqsa, chekka hududlarda aholini manzilli profilaktika va skrining qilish ishlari sifatini ko‘tarish uchun 2021 yil 1-oktyabrga qadar zarur uskunar bilan jihozlangan maxsus avtobuslarning kamida 3 ta tajriba na‘munasi yaratiladi va sinovdan o‘tkaziladi [1].

Bugungi kunda tibbiyot muassasalari faoliyatiga zamonaviy texnologiyalar joriy etib borilmoqda. Misol uchun, hozirda 423 ta birlamchi tibbiyot muassasasi elektron poliklinika axborot tizimiga ulangan. Lekin yangicha ishlash uchun hamma joyda ham sharoit yetarli emas. Ayrim tibbiyot muassasalarida kompyuterlar yetishmaydi. Sohoni raqamlashtirish uchun bu yil byudjetdan 28 milliard so‘m ajratilgan bo‘lsada, bu boradagi ishlar sust ketmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish muammosining dolzarbligi jamiyat hayotini, demakki, aholi turmush tarzini axborotlashtirishning tobora kuchayib borishi bilan bog‘liq. Aholi o‘rtasida kompyuter ta’lim texnologiyalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, xususan, zamonaviy infokommunikatsion texnologiyalar vositalaridan foydalanish ushbu tadqiqotning yo‘nalishini belgilab berdi, ya’ni zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tibbiyotni raqamlashtirishning aholi uchun qulaylik va avfzalliklarini belgilab berdi desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

Elektron texnologiyalar va ilovalarning rivojlanishi tibbiyotni o‘rganish va so‘nggi yangiliklardan xabardor bo‘lish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratyapti. Tibbiy hujjatlarni elektronlashtirish tibbiyot xodimlarining ishini kamaytirib, bemor haqidagi ma’lumotlarga masofadan turib ega bo‘lish imkoniyatini paydo qiladi. So‘nggi vaqtlarda tibbiyot talabalari va tibbiyot xodimlari orasida mobil ilovalardan foydalanish juda ommalashyapti [3].

Har bir oilaviy shifokor punkti, oilaviy poliklinika hamda tuman (shahar) ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasida elektron tizim bilan ishlaydigan bir nafardan IT (informatsion texnologiya) operator – hamshira lavozimi kiritiladi. Ularning kompyuter savodxonligini oshirish bo‘yicha bepul o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etiladi.

Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish bevosita (ta‘lim dasturlari bo‘yicha o‘qitish) va bilvosita (qoidaga ko‘ra, ta‘lim dasturlarisiz o‘qitish) shakllari bo‘yicha o‘tkaziladi.

Har bir fuqaroning elektron ma‘lumotlar bazasi tashkil qilinib, shu asosda ish olib boriladi. Bugungi kunda tibbiyot xodimlarining ko‘p vaqtlari qog‘ozbozlikka, ortiqcha hujjatlarni to‘ldirishga ketadigan bo‘lsa, raqamlashtirish orqali tibbiyot xodimlari bemorlarga ko‘proq vaqt ajratishi ta‘minlanadi.

Davlat tibbiyot muassasalarini 2021-2023 yillarda zamonaviy kompyuter jihozlari bilan ta‘minlash rejasiga muvofiq, 2021 yil yakuniga qadar davlat tibbiyot muassasalari uchun 17 ming 400 ta zamonaviy kompyuter jihozlari xarid qilinadi. Ushbu kompyuterlar oilaviy shifokor punktlari, oilaviy poliklinikalar va tuman (shahar) ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalariga beriladi.

2021-yil 3-noyabr kuni Shavkat Mirziyoyev rahbarligida o‘tkazilgan videoselektorda 2022-yilda ta‘lim va tibbiyot tizimiga 70 trillion so‘m ajratish ko‘zda tutilmoqda. Unga ko‘ra, 2022-yildan boshlab ta‘lim va tibbiyot tizimiga 58 trillion so‘m ajratilishi ko‘zda tutilgan edi. Prezident bu mablag‘ga qo‘shimcha tarzda yana 12 trillion so‘m ajratish taklifini bildirdi. Bundan ko‘rilgan maqsad ushbu ikki sohani rivojlantirib, raqamlashtirishdir desak mubolag‘a bo‘lmaydi [2].

Xulosa. Muxtasar qilib aytganda, tibbiyot sohasida olib borilayotgan raqamlashtirish siyosati birinchi navbatda aholiga qulayliklar yaratish bilan birga, sohada qog‘ozbozlik, byurokratiya va korrupsiyani keskin qisqartirishga, tibbiy xizmat sifatini tubdan yaxshilashga, pirovardida mamlakatimiz tibbiyotini jahon standartlari darajasiga olib chiqishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://teleradio.uz/>
2. <https://t.me/xushnudbek/>
3. <https://t.me/hujayra/>

**БОЛАЛАР БОҒЧАСИ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРИНИНГ ТЎҒРИ ОВҚАТЛАНИШ
ХОЛАТИНИ ЎРГАНИШ.**

Абдукадирова Л.К.

Тошкент тиббиёт академияси

Кириш. 3-7 ёшда болаларнинг организмида тез ўсиш, аъзо ва тизимларни шаклланиши давом этади, моддалар алмашув жараёнлари юқори тезликда кечади. Марказий асаб тизими тезкор суръатда ривожланади. Мактабгача бўлган даврнинг охирида бола барча асосий ҳаракатларни эгаллайди ва нутқи яхши ривожланган бўлади. Уларга, айниқса, юқори ҳаракат фаоллиги хос ва бу катта энергия сарфланишини талаб этади [1].

Бола организмини бундай ривожланиши хужайралар тузилиши учун керак бўлган моддалар, биринчи навбатда оксиллар, витаминлар ва минералларни кўп талаб этади. Ўсиб келаётган бола организмига тўлақонли оксиллар гўшт, балиқ, сутли маҳсулотлар, тухум маҳсулотлари орқали киради ва у рационнинг умумий қувватини 15 % ташкил қилиши керак [2].

Ёғлар мактаб ёшигача бўлган болалар рационини умумий қувватининг 30 – 35 % ташкил қилиши лозим. Улар ферментлар, гормонлар, хужайралар таркибига кириб минерал тузлар, витаминлар сўрилишига таъсир кўрсатади. Организм эҳтиёжлари биринчи навбатда сариеғ ва ўсимлик мойи, қаймоқ, сутлар билан қондирилади. Углеводлар бола организмида асосан қувват манбаи вазифасини ўтайди. Уларга бўлган эҳтиёж ўз таркибида полисахаридлар, толалар, минерал моддалар, витаминларни тутган сабзавот ва мевалар ҳисобига қондирилади. Витамин ва минерал моддалар бола организмини тўғри ва муқобил ривожланишини



Ministry of health
of the Republic
of Uzbekistan



Tashkent Medical
Academy



Korea
University

***O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI,
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI,
KORYO UNIVERSITETI***

***“ATROF MUHIT MUHOFAZASINING DOLZARB MUAMMOLARI VA INSON
SALOMATLIGI”
xalqaro ishtirok bilan Respublika 9- ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami***

*Collection of scientific papers of the 9th republican scientific-practical conference with
international participation*

***“IMPORTANT PROBLEMS OF THE ENVIRONMENTAL PROTECTION AND HUMAN
HEALTH”***

*Сборник научных трудов 9-ой республиканской научно-практической конференции с
международным участием*

***«АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И ЗДОРОВЬЕ
НАСЕЛЕНИЯ»***



Tashkent-2022, 16-noyabr